



JAMOAT TARTIBIGA YOKI XAVFSIZLIGIGA TAHDID SOLUVCHI YOLG'ON AXBOROTNI TARQATISH JINOYATINI KVALIFIKATSIYA QILISHNING AYRIM MASALALARI

Raimova Diyora

Chilonzor tumani IIO FMB inspektori, leytenant

raimovaaad@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17338273>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 5-oktabr 2025 yil
Ma'qullandi: 9-oktabr 2025 yil
Nashr qilindi: 13-oktabr 2025 yil

KEY WORDS

yolg'on axborot, jamoat tartibi, jamoat xavfsizligi, jinoyat tarkibi, axborot xavfsizligi, jinoyatni kvalifikatsiya qilish.

ABSTRACT

Mazkur maqolada jamoat tartibiga yoki xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg'on axborotni tarqatish jinoyatini kvalifikatsiya qilish masalalari yoritilgan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan davrda yolg'on xabarlarining tezkor tarqalishi jamoatchilik kayfiyatiga, ijtimoiy barqarorlikka va fuqarolarning xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois mazkur jinoyatning huquqiy tabiatini to'g'ri baholash va uni boshqa o'xshash huquqbuzarliklardan farqlash muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda milliy jinoyat qonunchiligidagi normalar, amaliyotdagi ayrim holatlar hamda xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilingan. Shuningdek, yolg'on axborot tarqatishning subyektiv va obyektiv belgilari, jinoyat tarkibining asosiy elementlari hamda kvalifikatsiya qilishda uchraydigan murakkab jihatlar ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, ushbu turdagi jinoyatlarga nisbatan qo'llanilayotgan yondashuvni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishda qator normativ-huquqiy baza shakllanmoqda, jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-martdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni[1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-sonli [2] hamda 2021-yil 29-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-27-son Farmon[3]lari shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni[4] bilan Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslar jamoat tartibiga yoki xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg'on axborotni tarqatganlik uchun javobgarlikni o'rnatuvchi maxsus norma bilan to'ldirildi.

Metodologiya. Tadqiqotda jinoyat huquqiy normalarni sharhlash hamda huquqni qo'llash amaliyotini o'rganishga asoslangan tizimli yondashuv qo'llanildi. Mazkur jinoyatning obyektiv va subyektiv belgilarini aniqlashda qiyosiy-huquqiy tahlil usuli, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, huquqni qo'llash amaliyoti tahlili hamda xorijiy tajriba o'rganish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, ijtimoiy xavfsizlik va axborot xavfsizligi sohasidagi xalqaro standartlar va ilmiy manbalar tahlili tadqiqotning metodologik asosini tashkil etdi.

Natijalar. Ko'rib chiqilayotgan muammoning mazmuni va kvalifikatsiya qilish masalalariga o'tishdan oldin, "jamoat xavfsizligi", "jamoat tartibi", "yolg'on axborot" kabi tushunchalar ma'nosiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi"da "jamoat xavfsizligi"ga - "jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo'lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi"[3] mazmunida ta'rif keltirilgan.

Professor M.X.Rustambayev "jamoat xavfsizligi deganda, jamiyat hayotining xavfsiz sharoitlaridir, ya'ni fuqarolarning daxlsizligi, hayoti va sog'lig'ini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlari, har qanday davlat va jamoat tuzilmalarining normal faoliyati va h.k.larni ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar"[5], - deya ta'rif bergan. Boshqa adabiyotlarda mazkur tushunchaga "soyishtalik va barqarorlik, shaxs va mulk daxlsizligi, davlat va jamoat institutlarining normal ishlashi bilan ajralib turadigan jamiyat holati"[6] mazmunida ta'rif keltirilgan.

Yuqoridagi ta'riflardan jamoat xavfsizligining o'ziga xos belgilarini ajratish mumkin, ya'ni:

- tahdidlardan himoyalanganlik;
- shaxsiy va mulkiy daxlsizlik;
- davlat va jamiyat institutlarining normal faoliyati.

"Jamoat tartibi" esa, jamoat xavfsizligidan farq qiluvchi tushuncha hisoblanib, "jamiyatda insonlar o'rtasida amaldagi qonunchilik normalari, urf-odatlar va an'analar hamda axloq normalari bilan tartibga solingan, o'zaro xulq-atvor qoidalari tizimi" tushuniladi[5]. Boshqa manbalarda "Jamoat tartibi - bu jamoat xavfsizligi, jismoniy va yuridik shaxslarning normal faoliyat ko'rsatishi, mehnat qilishi va dam olishi uchun sharoit yaratishga, sha'ni, qadr-qimmatini hamda umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishga yo'naltirilgan huquqiy va ijtimoiy-axloqiy normalar asosida jamoat joylarida yuzaga keladigan va rivojlanadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi"[7].

V.V.Lazarev, L.L.Popov va L.M.Rozinlar "jamoat tartibi - ijtimoiy munosabatlar tizimining ma'lum bir sifati bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning shunday tartibliligidan iborat bo'lgan, jamiyat hayotining uyg'unligi va ritmiga, jamoat munosabatlari ishtirokchilarining o'z huquq va majburiyatlarini to'sqinliksiz amalga oshirishiga va ularning manfaatlari, jamoat hamda shaxsiy tinchligining himoya qilinishiga olib keladi" deb ta'kidlashadi[8].

Demak, "jamoat tartibi" jamoat xavfsizligi ta'minlanishining omili, zaruriy sharti desak xato qilmaymiz. Zero, jamoat tartibining asosiy xususiyati bu, davlat va jamiyatning barcha a'zolari tomonidan mamlakatda o'rnatilgan xulq-atvor qoidalari va huquqiy normalariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlashdir. Bu esa, o'z-o'zidan ushbu mamlakatda jamiyat xavfsizligini ta'minlanishining muhim kafolatidir.

Qayd etish joizki, so'nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda aholini sarosima va tashvishga soladigan turli noxolis va yolg'on xabarlar tarqatishga moyil guruhlar paydo bo'lmoqda. Masalan, 2022-yilning iyun oylarida ijtimoiy tarmoqlarda Surxondaryo viloyatida joylashgan To'palang suv ombori to'g'oni suv qo'yib yuborgani va atrofni suv bosgani to'g'risidagi turli ma'lumotlar tarqalishi aholi orasida vahimaga sabab bo'lganligini, davlat hokimiyati idoralarining ish faoliyatining ortiqcha yuklamasiga sabab bo'lganligini aytishimiz mumkin. Yoki 2020-yil aprel oyida Buxoro viloyati Qorako'l tumanida "toshqin" bo'lishi aytilgan va odamlarning ommaviy

ko'chib chiqishi haqidagi asossiz ma'lumotni yoki bo'lmasa yurtimizda pandemiya oralig'ida, odamlar orasida tarqalgan asossiz, yolg'on ma'lumotlarni misol qilishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-maydagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni[9] asosida amaldagi Jinoyat kodeksi 244¹-modda (Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish) bilan to'ldirildi.

Mazkur jinoyat obyektiv tomondan "diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan, qirg'in solishga yoki fuqarolarni zo'rlik bilan ko'chirib yuborishga da'vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash yoki ularni tarqatish maqsadida saqlash, shuningdek diniy-ekstremistik, terrorchilik tashkilotlarining atributlarini yoki ramziy belgilarini tarqatish yoxud namoyish etish maqsadida tayyorlash, saqlash" (JK 244¹-modda 1-qism) yoki ushbu materiallarni tarqatish, namoyish etish (JK 244¹-modda 2-qism) orqali sodir etiladi. Ko'rib turganimizdek, modda dispozitsiyasida, "jamoat xavfsizligi" va "jamoat tartibi" kabi tushunchalar umuman qo'llanilmagan.

Biroq, mazkur modda dispozitsiyasi tahlili asosida o'z-o'zidan quyidagicha xulosa qilinadi: *"Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallar"* bu:

birinchidan, diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan materiallar;

ikkinchidan, qirg'in solishga yoki fuqarolarni zo'rlik bilan ko'chirib yuborishga da'vat etadigan materiallar;

uchinchidan, aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallar;

to'rtinchidan, diniy-ekstremistik, terrorchilik tashkilotlarining atributlari yoki ramziy belgilari.

Biroq, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni[10] asosida kiritilgan 244⁶-modda nomi "Yolg'on axborot tarqatish" deb nomlansada, dispozitsiyasida obyektiv tomondan, Jinoyat kodeksning 244¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyat alomatlari mavjud bo'lmagan hollarda jamoat tartibiga yoki xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg'on axborotni tarqatish orqali sodir etilishini ko'rishimiz mumkin.

Demak, o'z-o'zidan savol tug'ilishi tabiiy. Mazkur ikki turdagi jinoyatning o'zaro farqli jihatlari nimada namoyon bo'ladi? Mazkur moddalar bir-birini takrorlovchi normalarmi yoxud moddalar raqobati vujudga kelib, maxsus norma ustunligi inobatga olinishi lozimmi?

Biz yuqorida jamoat tartibiga yoki xavfsizligiga tahdid soluvchi materiallarni alohida ajratib ko'rsatdik, demak, JK 244⁶-moddada ular jinoyat predmeti doirasida emas. Bizningcha, JK 244⁶-moddasida nazarda tutilayotgan jamoat tartibiga yoki xavfsizligiga tahdid soluvchi holatlar sifatida:

- odamlarning qurbon bo'lishiga;
- odamlarning sog'lig'iga va tabiiy muhitga zarar yetkazilishiga;
- katta moddiy yo'qotishlarga va aholining turmush sharoitlarining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar;
- ekologik favqulodda vaziyatlar, shu jumladan epidemiyalar, epizootiyalar va baxtsiz hodisalar;
- tabiiy ofatlar, falokatlar, tabiiy va boshqa ofatlar natijasida yuzaga kelgan boshqa holatlar tushunilishi lozim.

Bu borada xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilganda Qozog'iston Respublikasi JK "274-modda. Bila turib yolg'on axborot tarqatish", Rossiya Federatsiyasi JK "207¹-modda. Fuqarolarning hayoti va xavfsizligiga tahdid soluvchi holatlar to'g'risida bila turib yolg'on axborot tarqatish" va "207³-modda. Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlaridan foydalanish, Rossiya Federatsiyasi davlat organlarining o'z vakolatlarini bajarishi to'g'risida bila turib yolg'on axborot tarqatish" kabi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilanganligini ko'rishimiz mumkin.

Muhokama. Endi keling, “Yolg‘on axborot o‘zi nima?”, “Uni tarqatishning qanday ijtimoiy xavfliligi bor?”, “Yolg‘on ma‘lumot va tuhmat o‘rtasidagi chegara” “Qilmish yolg‘on axborot natijasida jamoat tartibiga yoki xavfsizligiga tahdid solish deb baholanishi uchun biror bir minimal chegara bormi?” kabi masalalarga to‘xtalsak.

O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi 560-II-sonli Qonunning 12¹-moddasiga ko‘ra, veb-saytning va (yoki) veb-sayt sahifasining yoxud boshqa axborot resursining egasi, shu jumladan bloger hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot joylashtiriladigan Internet jahon axborot tarmog‘idagi o‘z veb-saytidan va (yoki) veb-sayt sahifasidan yoxud boshqa axborot resursidan jamoat tartibiga yoki xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg‘on axborot tarqatish maqsadlarida foydalanilishiga yo‘l qo‘ymasligi kabi majburiyat yuklatildi[11].

“Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunning 12¹-moddasi 2-qismiga muvofiq veb-saytning va (yoki) veb-sayt sahifasining egasi, shu jumladan bloger hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot joylashtiriladigan Internet jahon axborot tarmog‘idagi o‘z veb-saytiga va (yoki) veb-sayt sahifasiga hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborotni joylashtirishdan avval uning to‘g‘riligini tekshirishi, shuningdek, joylashtirilgan axborotning noto‘g‘riligi aniqlangan taqdirda uni darhol o‘chirib tashlashi shart.

“Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasida jurnalistning majburiyatlari belgilangan bo‘lib, o‘z kasbiga doir faoliyatni amalga oshirish chog‘ida jurnalist o‘zi tayyorlayotgan materiallarining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini tekshirishi va xolis axborot taqdim etishi shartligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Keltirib o‘tilgan normalar ma‘lumotlarning to‘g‘riligini tekshirib, keyin e‘lon qilish axborot tarqatuvchi har qanday shaxs, shu jumladan, jurnalistlar va blogerlarning ham majburiyatlaridan biri hisoblanadi.

Bu borada xorijiy davlatlar ancha afzalliklarga ega. Xususan, Germaniyada “Internet”da yolg‘on xabar tarqatishga qarshi kurashish maqsadida “Tarmoqda qonuniylik to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingan. Unga ko‘ra, mualliflar foydalanuvchilarning shikoyatlariga, shu jumladan, yolg‘on axborot masalalari bo‘yicha ham murojaatlarga munosabat bildirishi shart.

Angliyada Internetdagi feyklar va manipulyatsiyalarga qarshi kurashish ancha rivojlangan. Google, Twitter hamda Facebookda tarqatilayotgan xabarlar uchun jarima jazosini qo‘llash masalasi ko‘tarilmoqda. Hozirgi kunda Birlashgan qirollik hukumati tomonidan internet tartibiga solish prinsiplarini o‘zida aks ettiruvchi “Raqamli xartiya” qabul qilingan.

AQSH Kongressi Senati tomonidan 2017-yil 19-oktyabrda “Adolatli reklama to‘g‘risida”gi Qonun (Honest Ads Act)[12] qabul qilingan. Qonunga binoan internet-kompaniyalar o‘zlarida e‘lon qilingan targ‘ibot (tovar, ish va xizmatlar ko‘rsatishni) materiallari buyurtmachilari to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjud bo‘lgan hujjat nusxalarini saqlab qo‘yishga majburdirlar.

Rossiya Federatsiya Kengashining quyi palatasi – Davlat Dumasi tomonidan 2019-yilda internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatiladigan yolg‘on xabarga qarshi kurashish bo‘yicha “Axborot, axborot texnologiyalari va axborot himoyasi to‘g‘risida”gi va “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Federal qonunlarga o‘zgartirishlar kiritildi.

Biroq, oramizda qonunchilikka kiritilayotgan ushbu o‘zgartirish va qo‘shimchalarni “qonun fuqarolarning so‘z erkinligiga bo‘lgan huquqini cheklashni ko‘zlagan” degan tarafdorlar ham uchramoqda.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu jinoyatning ijtimoiy xavfliligi, bir tomondan, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga, ularning daxlsizligiga putur yetkazish xavfi bilan, ikkinchi tomondan, davlat va jamoat institutlarining normal faoliyatiga salbiy ta‘siri bilan namoyon bo‘ladi.

Mazkur jinoyatni kvalifikatsiya qilishda asosiy e‘tibor axborotning haqiqatga zidligi, jamoat tartibi yoki xavfsizligiga tahdid darajasi, hamda uni tarqatish shakllari va vositalariga

qaratilishi lozim. Shu bilan birga, jinoiy javobgarlik chegaralarini belgilashda axborot erkinligi va so'z erkinligi huquqlari bilan bog'liq muvozanatni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rganilgan nazariy qarashlar va amaliy tajriba asosida quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

- yolg'on axborot tarqatish jinoyatini boshqa axborot bilan bog'liq huquqbuzarliklardan aniq ajratish uchun jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilarini yanada aniqroq belgilash zarur;

- amaldagi jinoyat qonunchiligini xalqaro tajribaga tayangan holda takomillashtirish, xususan, "jamoat tartibi" va "jamoat xavfsizligi" tushunchalarini huquqiy jihatdan yanada izchil talqin qilish lozim;

- huquqni qo'llash amaliyotida yagona yondashuv shakllantirish orqali mazkur jinoyatni kvalifikatsiya qilishda turlicha talqinlarning oldini olish mumkin.

Shunday qilib, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishda yolg'on axborot tarqatish jinoyatini to'g'ri kvalifikatsiya qilish huquqni qo'llash amaliyotining muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-martdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni // [O'RQ-679-сон 30.03.2021. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida](#)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-sonli Farmoni // [PF-6196-сон 26.03.2021. Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida](#)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-27-son Farmoni // [PF-27-сон 29.11.2021. O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida](#)
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.09.2025 y., 03/20/658/1670-son
5. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi. Maxsus qism. – Toshkent: "Adolat", 2001. – B. 412.
6. Криминологическая характеристика преступлений против общественной безопасности и их предупреждение. - Студопедия (studopedia.ru)
7. Ismailov I., Ziyodullayev M.Z., F.N. Shukurov va boshq. Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyati: Darslik / – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019.
8. Лазарев В.В., Попов Л.Л., Розин Л.М. Правовые основы обеспечения общественного порядка. М., 1967.
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 5-6-son, 102-modda, 9-son, 167, 168-modda // <https://lex.uz/docs/42953>.
10. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda O'RQ-654-son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, <https://lex.uz/docs/-5286348>
11. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-martdagi O'RQ-679-sonli Qonuniga asosan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03/21/679/0256-son.

12. Honest Ads Act, U.S. Senate, 19 October 2017, <https://www.congress.gov/bill/115th-congress/senate-bill/1989>.



INNOVATIVE
ACADEMY